

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILNI  
INTERFAOL USULLAR ORQALI O'RGATISH**

*SAMDCHTI*

*Ingliz tili II fakulteti*

*II bosqich talabasi*

**M.SH.Tolibova**

*Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova*

[\*tolibovamuhabbat568@gmail.com\*](mailto:tolibovamuhabbat568@gmail.com)

*Tel: +998900830302*

***Annotasiya:** Xorijiy tillarni o'rganishga nisbatan eng qulay bo'lgan davr 5-8 yosh bo'lib, o'z ona tilini o'rganish tizimi to'liq o'rganilgan bo'lib, xorijiy tillarni egallashga ongli ravishda harakat qiladi va atrofdagilar bilan xorijiy tilda muloqot qilish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Bolalikda xorijiy tilni o'rganish ularda kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.*

***Kalit so'zlar:** interfaol metod, media ta'lim metod, didaktik o'yinlar.*

***Abstract:** The most favorable period for learning foreign languages is 5-8 years old, when the system of learning one's native language is fully studied, one makes a conscious effort to acquire foreign languages, and communicating with others in a foreign language does not cause much difficulty. Learning a foreign language in childhood has a positive effect on improving their communicative abilities.*

***Key words:** interactive method, media education method, didactic games.*

Hozirgi kunda xorijiy tillarni boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan boshlab o'rgatish davr talabiga aylanib qoldi.

Maktabdagi ingliz tili o'qituvchilarida sinflarni o'qitish uchun maxsus bilim, tajriba va o'qitish usullari bo'lmaganligi sababli, Universitet va institutlarda maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til ( ingliz tili ) yo'nalishi tashkil

etildi. Bu yoʻnalishda tajriba sinov talabalari hozir 4-kursni muvaffaqiyatli tugatdilar. Ular yangi dastur boʻyicha tahsil oldilar. Bu yoʻnalishda yoʻnalishda tahsil olgan talabalar sinov guruhlarida yozish , oʻqish , eshitish, va grammatikani elementar narsalardan boshlab oʻrganishdi. Ularning metodikasi ham yangi dasturga mos.

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson sifatida tarbiya qilishda boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining oʻrni katta , bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda oʻquvchilarni darsga boʻlgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali oʻqituvchilar turli oʻyinlardan foydalanishmoqda .

Interfaol metod – taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasidagi faollikni oshirish orqali ularning oʻzaro harakati taʼsiri ostida bilimlarni oʻzlashtirishni kafolatlash , shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi . Ushbu usullarni qoʻllash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari – oʻquv materiallarini erkin bayon etish, mustaqil oʻqish, oʻrganish, bahs-munozaralar oʻtkazish.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida taʼlim oʻz navbatida kompyuter dasturlari yordamida oʻqitish , internet tarmoqlari asosida oʻqitish , masofadan turib oʻqitish media-taʼlim metodlaridan iborat . <<Texnologiya oʻzining egiluvchanligi, natijalarning toʻgʻriligi, samaradorligi, oldindan loyihalashtirish zaruriyati bilan metodikadan farqlanib turadi». Boshlangʻich taʼlimda oʻquvchilarning yosh xususiyatlari , savodxonlik darajalari , shaxsiy xarakterlariga koʻra didaktik oʻyinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qoʻllanilib kelinmoqda. Agar oʻqitish paytida har bir oʻquvchi oʻzining oʻzlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlasa, u yuqori sifat va samaradorlikni taʼminlaydi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirilgan taʼlim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi taʼlim jarayonlarida didaktik oʻyinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritimiz : Interfaol oʻyinli metodlar oʻquvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan . Ular oʻquvchi tabiatidagi ijodiy imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi . Interfaol

o'yinlarning asosiy turlari : Aqliy va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat . Bular o'quvchi yoshlarga psixologik, aqliy, ma'naviy, jismoniy, ma'rifiy, badiiy-estetik , bunyodkorlik va kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi.

### **Xulosa**

Demak << o'qituvchi chet tili darslarini pedagogik texnologiyalardan foydalanib , shunday tashkil etsinki , u samaraga erishsin >> . Bu esa o'z navbatida yuqori kompetensiyaga erishgan o'qituvchining tajriba mahoratiga bog'liqdir. Hammamizga ma'lumki o'n yoshdan so'ng, xorijiy tillarni o'rganuvchi bolalarning faqat 5 foizigina so'zlarni to'g'ri talaffuz etishi mumkin. Shuning uchun xorijiy tillarni o'rganishni erta boshlash samarali hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kenjaboyev A., Salomova G., Sohibov B. Masofaviy o'qitishning pedagogik asoslari. // «Zamonaviy ta'lim», 2014, 10-son. -3–7-b.
2. Kenjaboyev A., Kenjaboyev J. Tarbiya texnologiyasi va uning dolzarbligi. // «Zamonaviy Ta'lim», 2015, 4-son. -61–64-b.
3. Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2006. 4.Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006.